

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Yusupov Shakir Xaitbayevich</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XORAZM SHAHARSOZLIK MADANIYATI TARAQQIYOTINING NATIJALARI	11-18
<i>Saparbaev Bunyod Khurrambek ogli</i> THE ART OF NEGOTIATION: KHIVA AND RUSSIA ENGAGEMENT UNDER MUHAMMAD RAHIMKHAN I (1806–1825)	19-28
<i>Tursunova Gavhar Begmurodovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIGA AHOLINI KO'CHIRISHDA MAHALLIY AHOLINING QARSHILIK HARAKATLARI (1890–1916-YILLAR)	29-32
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Baratov Otabek Aripovich</i> SHAHARLAR DEMOGRAFIYASI VA KLASSIFIKATSIYASIDAGI O'ZGARISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	33-40
<i>Сагатовна Зиёдахон Бахтияровна</i> МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ТУРЦИЕЙ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	41-45
<i>Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna</i> STATISTIK NASHRLAR VA ADABIYOTLARDA TURKISTONNI ELEKTRLASHTIRISH MASALASI (XX ASRNING 20–50-YILLARI)	46-51
<i>Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSI AHOLISINING ETNIK TARKIBI, ETNOSLARNING JOYLASHUVI VA ETNODEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI (XIX ASR — XXI ASR BOSHLARI)	52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich, Achilova Firuza Kurbanovna</i> MINTAQA IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	57-67
<i>Султанова Дина Файзрахмановна</i> НАУЧНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО МЕХАНИЗМА В ЭКОНОМИКЕ ОТРАСЛИ КОНЕВОДСТВА	68-72
<i>Xushvaqtov Jasur Shuhrat o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI HAYOTIY SIKL YONDASHUVI ASOSIDA OMMAVIY BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	73-82
<i>Jabbarov Nurbek Atanazarovich</i> O'ZBEKISTON SANOATIGA ENERGIYA RESURSLARINING TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	83-88

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Zaripova Hulkan Toxir qizi</i> O'ZBEKISTONDAGI TARIXIY-MADANIY JARAYONLARDA MARGINAL QATLAMLARNING O'RNI	89-95
---	-------

<i>Abdullayeva Saodat Nurillo qizi</i> PAZANDACHILIK MADANIYATI VA SALOMATLIK FALSAFASI: VOZEHNING “KONI LAZZAT XONI NE’MAT” ASARIDA TAOMLARNING TIZIMLASHTIRILISHI	96-99
<i>Rajabov Behruz Baxshillayevich</i> TINCHLIK VA HAMKORLIKNING FALSAFIY MOHIYATI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O’RNI.....	100-104
<i>Artigova Adolat Ataboyevna</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING “AL-KASHSHAF” ASARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	105-109
<i>Umarova Feruza</i> MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA DIN VA DAVLAT MUNOSABATLARI TAHLILI	110-116
<i>Djalalova Nigora Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY TEXNOLOGIYALARNI O’RGANISHDA RAQAMLI ONG KONSEPSIYASI	117-120
<i>Ходжиметов Шахрух Русланбекович</i> ЭМИГРАЦИОННЫЕ И ИММИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ ВЛИЯНИЕ НА СТАБИЛЬНОСТЬ ОБЩЕСТВА	121-124
<i>Islamova Gulzamon Madiyevna</i> JADIDLAR DAVRIDA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING FALSAFIY ASOSLARI.....	125-130
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> HECI KONSEPSIYASI VA MAHDUMI A’ZAM MEROSI: BAG’RIKENGLIK, AKSIOLOGIK MUSHTARAKLIK, METODOLOGIK TAFOVUT, UMUMIY NUQTALAR VA FARQLAR HAMDA AGRAR TA’LIMDA INSONPARVARLIK G’OYALARINI INTEGRATSIYA QILISH MASALASI.....	131-136
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Baydjanova Iroda Abdullayevna</i> TARJIMADA HAZIL-MUTOYIBA KONSEPTINING SAQLANISHI MUAMMOLARI: “SHUM BOLA” ASARINING O’ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDAGI TARJIMALARI MISOLIDA	137-143
<i>Imomiddinova Nargiza</i> ASL XITOYCHA HARBIY TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	144-154
<i>Sobirov Anvar Kuvandikovich</i> JONLI SO’ZLASHUV NUTQIDA SO’Z TARTIBINING LINGVOPOETIK VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	155-159
<i>Азизова Насиба Бахритдиновна</i> ЯЗЫКОВАЯ ЛИЧНОСТЬ КАК КУЛЬТУРНЫЙ КОНЦЕПТ: РЕКОНСТРУКЦИЯ ИДЕЙ АЛИШЕРА НАВАИ И ИХ РЕЛЕВАНТНОСТЬ ДЛЯ СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ.....	160-168
<i>Ishankulova Diyora Allovidinovna</i> UMAR XAYYOM SHE’RIYATINING G’OYAVIY-MAZMUNII MOHIYATI VA ULARNING TARJIMADAGI TALQINI	169-174

<i>Olimjon Jalilov Muxidinovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK EPOSARIDA LINGVISTIK MODELLARNING QIYOSIY XUSUSIYATLARI	175-178
<i>Achilova Zuxra Qurbonovna</i> "MALLA SAVDOGAR" DOSTONI VARIANTLARIDA BAXSHIYONA JANG POLOTNOSI VA PEYZAJ ESKIZLARI	179-184
<i>Orazgalieva Ayjamal Marat qizi</i> SYNONYMIC AND PRAGMATIC VERBALISATION OF CHILD/BALA IN ENGLISH AND KARAKALPAK LEXICOGRAPHY	185-192
<i>Babayeva Irada Sabirovna</i> LINGUOCULTUROLOGICAL APPROACH TO THE STUDY OF EMPATHIC COMMUNICATION	193-198
<i>Тоштемурова Фарангиз Шухратовна</i> РАЗВИТИЕ СЛОВАРНОГО СОСТАВА СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА И РОЛЬ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В ЕГО ОБОГАЩЕНИИ	199-202

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Utemuratova Sapargul Shamshetovna</i> EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLARDA MAXSUS SUBYEKT TUSHUNCHASI VA MANSABDOR SHAXSLARNING JINOIY JAVOBGARLIGI	203-207
<i>Qilichev Xayrulla Mamatovich</i> FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK BITIMIDA ISHTIROK ETISHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	208-217
<i>Бурханова Шийрин Жамшитовна</i> ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПРАВОВАЯ ПОЛИТИКА И НОРМОТВОРЧЕСТВО: ВЗАИМОСВЯЗЬ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ	218-223
<i>Akayeva Marapat Abduhalikovna</i> GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHDA HUQUQIY SIYOSAT: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING TAHLILI.....	224-232
<i>Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna</i> XOTIN-QIZLARNING JAMIYAT IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDAGI O'RNI	233-240
<i>Хидоятлов Бахтиер Батырович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ В ПОЛУЧЕНИИ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ	241-250
<i>Dadaboyeva Jumagul Anvarovna, Habibullayev Muhammadrajab Obidjonov</i> JAHON HAMJAMIYATINING GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHGA QARATAYOTGAN E'TIBORI	251-256
<i>Абдулжаппоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> МОБИЛЬНОЕ БАНКОВСКОЕ МОШЕННИЧЕСТВО: УГРОЗЫ, МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНИЯ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ	257-267
<i>Nasridinov Yigitali Borataliyevich</i> XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY ASOSLAR	268-276

<i>Mirzakarimova Dilafruz Doniyorjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT YORDAMIDA KIBERHUJUMLARNI ANIQLASH VA OLDINI OLISH	277-281
<i>Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA SUKUK INSTRUMENTLARINING INSTITUTSIONAL ROLI	282-289
<i>Нодирбекова Дилдона Абдумалик кизи</i> КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ПРАВА НА ДОСТУП К ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ И ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ АДМИНИСТРАТИВНОЙ ПРАКТИКИ	290-297
<i>Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o'g'li</i> QALBAKI PUL, AKSIZ MARKASI YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR YASASH VA ULARNI O'TKAZISH JINOYATINING AYRIM JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI	298-307
<i>Отлубаева Айгуль Бахрамовна</i> КЛАССИФИКАЦИЯ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ С ОПЫТОМ РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН	308-316
<i>Mukimbayev Otabek Sattarovich</i> GUVOHNING MAQOMINI HUQUQIY HIMOYALASHDA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR.....	317-324
<i>Yakubov Mirzaxid Turabayevich</i> NORMATIV-HUQUQIY Hujjatlar ijrosini ta'minlashning XORIJIIY MODELLARI VA MILLIIY AMALIYOT UCHUN XULOSALAR	325-333
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> RAQAMLI TA'LIMDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TALABLARI.....	334-338
<i>Raxmatullaev Dilmurod Raxmatullayevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA BO'LAJAK MUTAXASSISLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	339-348
<i>Yusupova Kamola Nuriddinovna</i> NEYROPEDAGOGIKA TA'LIM TIZIMINING YANGI ILMIY TARMOG'I SIFATIDA.....	349-353
<i>Umurzoqov Baxtiyor Boxodirovich</i> ZAMONAVIIY SHAROITDA HARBIY KADRLAR BOSHQARUVI TIZIMI SAMARADORLIGINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI.....	354-358
<i>Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna, Xujamova Dilobar Berdiyrovna</i> OLIIY PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SHAXSIY VA KASBIY KONGRUENTLIGINI LOYIHAVIIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MAZMUNI.....	359-366
<i>Xaitbayeva Durdona Zokirjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV RAQAMLI TA'LIM TIZIMINI LOYIHALASHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI	367-371

<i>Исмаилов Шухрат Абдусоат угли, Инназаров Маджид Амонович</i> МЕХАНИЗМЫ ВНЕДРЕНИЯ МОДЕЛИ ФИНАНСИРОВАНИЯ, ОСНОВАННОГО НА РЕЗУЛЬТАТАХ (PERFORMANCE-BASED FUNDING), В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ	372-378
<i>Rakhmatova Madina Abdumumin kizi</i> IMPLEMENTATION OF PROGRAMS FOR AUTOMATIC DETECTION AND CORRECTION OF GRAMMATICAL ERRORS IN ENGLISH WRITING.....	379-384
<i>To'rayev Azamat Maqsudovich</i> TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BO'SH VAQTNI TASHKIL ETISHNING RAQAMLI METODIKASI	385-390
<i>Mahmudova Farangiz Qurbonboy qizi</i> STUDENTS' ATTITUDES TOWARD AI USE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING: HELP OR HINDRANCE?	391-399
<i>Burxonova Muxlisa Murtoz qizi</i> O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDAGI BADIY MATNLARNI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	400-404

Received: 16 February 2026

Accepted: 01 March 2026

Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

DIGITAL METHODOLOGY FOR ORGANIZING LEISURE TIME IN DEVELOPING STUDENTS' RESEARCH COMPETENCE

To'rayev Azamat Maqsudovich

Independent Researcher, Chirchik State Pedagogical University

Abstract. This article analyzes the issues of effective leisure time management in the development of research competence among higher education students. The study proposes a "Smart Technology Methods" platform based on artificial intelligence as a scientific novelty to systematize students' extracurricular activities.

Keywords: research competence, leisure time, digital technologies, artificial intelligence, independent learning, digitalization of education, methodological platform, innovative education.

TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BO'SH VAQTNi TASHKIL ETISHNING RAQAMLI METODIKASI

To'rayev Azamat Maqsudovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarining ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirishda bo'sh vaqtni samarali tashkil etish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda talabalarning auditoriyadan tashqari faoliyatini tizimlashtirish uchun sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan "Aqli texnologiya metodlari" platformasi ilmiy yangilik sifatida taklif etilgan.

Kalit so'zlar: ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligi, bo'sh vaqt, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, mustaqil ta'lim, ta'limni raqamlashtirish, metodik platforma, innovatsion ta'lim.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N56>

Kirish. Bugungi kunda pedagogika sohasida yuzaga kelayotgan transformatsiyalar bevosita ilm-fan oldiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar bilan belgilanmoqda. Ushbu jarayon pedagog va talabalardan yuqori darajadagi mas'uliyat, innovatsion ruh va ijodiy tashabbuskorlikni talab qiladi. Ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarning tezkor kirib kelishi pedagogik yangilanishlar uchun zamin yaratib, talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ularda mustaqil izlanish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirish maqsadida xalqaro ta'lim standartlariga mos ilg'or texnologiyalar va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish zarurligi ta'kidlangan. Bu esa ta'lim oluvchilarning mustaqil izlanishlari, malakalarini uzluksiz oshirib borishlari hamda zamonaviy mutaxassis uchun zarur bo'lgan ijodiy yaratuvchanlik va mantiqiy tafakkur kabi professional kompetensiyalarni egallashlariga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy pedagogikada talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirish va bo'sh vaqtini raqamli texnologiyalar vositasida tashkil etish masalasi tizimli tahlilni talab etuvchi dolzarb yo'nalishdir. Ilmiy manbalarda tadqiqotchilik kompetentligi nafaqat bilimlarni o'zlashtirish, balki yangi ilmiy xulosalarni yaratish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Jumladan, B.T. Mirzaev va L.R. Karimovanning izlanishlarida ushbu kompetensiya mutaxassisning professional shakllanishida strategik ahamiyatga ega ekanligi va asosan auditoriyadan tashqari, mustaqil izlanishlar jarayonida mustahkamlanishi qayd etiladi[2].

Shu bilan birga, bo'sh vaqtini boshqarish (time management) va ta'lim samaradorligi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik J.B. Makan va Therese H. Britton kabi xorijlik olimlar tomonidan asoslab berilgan bo'lib, ular raqamli platformalardan ongli foydalanish akademik muvaffaqiyat va motivatsiyani oshiruvchi asosiy omil ekanligini isbotlashgan. Ta'limni raqamlashtirish jarayonida Sh.X. Axmedov [1] va N.V. Kuznesova [7] kabi tadqiqotchilar pedagogik dasturiy vositalarning didaktik imkoniyatlariga urg'u berib, raqamli muhitda talabalarning bo'sh vaqtini metodik tashkil etishning yangicha yondashuvlarini taklif etadilar.

YuNESKO va IHTT (OECD) kabi xalqaro tashkilotlarning hisobotlarida esa raqamli transformatsiya ta'lim oluvchining mustaqil trayektoriyasini belgilovchi vosita sifatida baholanadi[4, 6]. Bunda A. Sadik va Ye.V. Pashkinalar ta'kidlaganidek, zamonaviy raqamli vositalar tadqiqotchilik faoliyatini tizimlashtirish va shaxsiy bilim bazasini yaratishda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi [5, 8]. Bugungi bosqichda D.V. Jonson va R.T. Jonsonlarning kooperativ ta'lim nazariyasi sun'iy intellekt imkoniyatlari bilan boyitilib, o'qituvchi va talaba hamkorligini shaxsiylashtirilgan va innovatsion darajaga olib chiqmoqda [3]. O'tkazilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarning bo'sh vaqtini ilmiy faoliyatga yo'naltiruvchi va sun'iy intellektga asoslangan integratsiyalashgan metodik platformalarning mavjud emasligi mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Natija va muhokama. Zamonaviy oliy ta'lim standartlariga muvofiq, o'quv rejalarida talabalar o'quv yuklamasining hajmi auditoriya va mustaqil ta'lim nisbati bo'yicha sezilarli darajada o'zgardi. Xususan, bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida ushbu ko'rsatkich 40/60 foizdan 50/50 foizgacha, magistratura mutaxassisliklarida esa 30/70 foizdan 50/50 foiz nisbatigacha muvofiqlashtirildi. Bunday taqsimot talabalarning mustaqil izlanishi va o'z ustida ishlashi uchun keng imkoniyat yaratadi.

Belgilangan o'quv rejalaridagi mavzularni samarali o'zlashtirish uchun bugungi kunda "BBB", "FSMU", "Charxpalak", "Zinama-zina", "Keys-stadi" va "Blis-so'rov" kabi ko'plab interfaol metodlar qo'llanilmoqda. Biroq, talabalarning bo'sh vaqtini bevosita tartibga soluvchi, uni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga maqsadli yo'naltiruvchi aniq metodik tizimlar yetarli emas. Mustaqil ta'lim jarayoni bevosita talabaning bo'sh vaqti bilan bog'liq bo'lganligi sababli, zamonaviy ehtiyojlarga mos metodlarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yangi yaratiladigan metodlar talabaning kundalik faoliyatiga moslashuvchan bo'lishi va an'anaviy qog'oz shaklidagi tarqatma materiallardan farqli o'laroq, raqamli dasturiy ta'minot ko'rinishida tatbiq etilishi zarur. Bu yondashuv nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki talabalarning ilmiy izlanishlarga bo'lgan qiziqishini ham kuchaytiradi.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida mavjud bo'lgan aksariyat dasturiy vositalar asosan nazorat qilish, baholash yoki reytingni belgilash kabi ma'muriy vazifalarga yo'naltirilgan bo'lib, metodik tavsiyalar beruvchi funksional imkoniyatlarga ega emas. Shu bois, mazkur tadqiqotning

maqsadi talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirish uchun bo'sh vaqtni tashkil etishning samarali metodlarini ishlab chiqish va uni dasturiy ta'minot sifatida mujassamlashtirishdan iborat.

Ushbu dasturiy vositani yaratishda bir qancha tayanch pedagogik tushunchalarning mazmunini anglash muhim:

Pedagogik dasturiy vositalar — raqamli va kompyuter texnologiyalari asosida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirishga mo'ljallangan didaktik tizimlardir.

Ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligi — talabaning ilmiy faoliyatni mustaqil tashkil etish, ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish va tadqiqot natijalarini ilmiy uslubda taqdim eta olish qobiliyatidir.

Talabalarning bo'sh vaqtini pedagogik yondashuv asosida raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etish, ularni ijodiy va intellektual faoliyatga yo'naltirish uchun zarur muhitni yaratadi. Bu jarayonda raqamli platformalar talabalarni nafaqat yangi bilimlar bilan ta'minlaydi, balki ularning tadqiqotchilik salohiyatini faollashtirishga xizmat qiladi.

Bo'sh vaqtni samarali tashkil etish talabalarning auditoriyadan tashqari faoliyatini rejali, mazmunli va maqsadli ravishda yo'lga qo'yishni taqozo etadi. Pedagogik nuqtai nazardan, bu jarayon talabaning shaxsiy rivojlanishi, ijodiy tafakkuri, izlanuvchanligi va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonida mustaqil ravishda bilim olish, ma'lumot izlash, tadqiqotlar olib borish va professional muloqot qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bu kabi texnologiyalardan tizimli foydalanish talabalarning tadqiqotchilik salohiyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirish zamonaviy oliy ta'limning strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu borada bo'sh vaqtni pedagogik asosda raqamli resurslar yordamida tashkil etish samarali metodik yondashuv hisoblanadi. Xorijiy mamlakatlar va MDH davlatlari tajribasida talabalarning tadqiqotchilik faoliyatini faollashtirishda quyidagi dasturiy vositalardan keng foydalaniladi:

Notion: Taqvim va ma'lumotlar bazasiga tayangan holda eslatmalar hamda topshiriqlarni tizimlashtirish vositasi.

Todoist: Vazifalar ro'yxatini shakllantirish, muddatlar va ustuvorliklarni belgilash orqali vaqtni boshqarish platformasi.

Trello: Loyihalarni "Kanban" usulida vizual boshqarish va jamoaviy tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish vositasi.

Pomodoro (ilovalari): Diqqatni jamlash va ish jarayonini qisqa tanaffuslar bilan navbatlashtirish orqali ish samaradorligini oshirish metodikasi.

AppBlock: Diqqatni chalg'ituvchi ijtimoiy tarmoqlar va veb-saytlarni vaqtincha cheklash orqali fokusni asosiy vazifaga yo'naltirish vositasi.

Logseq: Shaxsiy bilimlar bazasini yaratish va ilmiy xulosalarni bog'liqlikda tahlil qilish uchun mo'ljallangan platforma.

Colwiz: Ilmiy manbalarni boshqarish (reference manager) va tadqiqot jarayonlarini tartibga soluvchi tizim.

Ushbu dasturiy vositalar negizida talabalar uchun quyidagi haftalik metodik ish rejasi taklif etiladi:

dushanba – ilmiy maqolalarni mutoala qilish va tizimlashtirish (Notion/PDF vositalarida);

seshanba — sohaviy kuzatuv va kichik tadqiqotlar o'tkazish (Google Forms yordamida);

chorshanba — videoma'ruzalar va ochiq ta'lim resurslarini tahlil qilish (YouTube/Coursera);

payshanba — mustaqil yozma ishlar va esselar tayyorlash (Word/Grammarly);

juma — bajarilgan ishlar va ilmiy xulosalarni qayta tahlil qilish (Logseq);

shanba — shaxsiy rivojlanish, sport va badiiy mutoala;

yakshanba — kelgusi hafta uchun vazifalarni rejalashtirish (Todoist).

Bunday tizimli yondashuv talabaning bo'sh vaqtini maqsadli boshqarish bilan bir qatorda, uning ilmiy-tadqiqotchilik salohiyatini bosqichma-bosqich va izchil rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ushbu yo'nalishda ingliz olimlaridan Therese H. Britton, Jeyms B. Makan, Tesser A., Rayan S. Beyker, Noel Entwistle va Jaklin P. Leytonlar ta'lim samaradorligi strategiyalari, o'quv jarayonida vaqtni boshqarish hamda talabalarining xatti-harakatlarini baholash metodlari yuzasidan keng ko'lamli tadqiqotlar olib borgan.

Mazkur tadqiqotchilar bo'sh vaqtni nazorat qilishda axborot texnologiyalarining ta'sirini ikki tomonlama ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qilgan. Xususan, J.B. Makan raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlarning nazoratsiz keng tarqalishi talabalar vaqtining samarasiz sarflanishiga sabab bo'lishini ta'kidlasa, ijobiy tomondan, vaqtni to'g'ri rejalashtirish akademik muvaffaqiyatning kaliti ekanligini asoslab beradi. Bu jarayonda barcha olimlar o'qituvchi tomonidan beriladigan motivatsiyani muhim omil sifatida alohida e'tirof etadi.

Xorijiy va MDH olimlarining tajribalari tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlikni integratsiyalashgan muhitda ta'minlovchi, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalangan holda bo'sh vaqtni boshqarishga yo'naltirilgan maxsus dasturiy ta'minot yaratish zarurati mavjud. Ushbu ehtiyojdan kelib chiqib, ilmiy yangilik sifatida **"Aqlli texnologiya metodlari"** nomli sun'iy intellekt asosida ishlovchi ta'limiy platforma loyihasi ishlab chiqildi.

Dasturiy platformaning mazmuni va funksional imkoniyatlari:

Platforma sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan bo'lib, o'qituvchi va talaba uchun alohida ishchi interfeyslariga ega. Platformaning asosiy vazifasi o'qituvchiga metodik tavsiyalar berish, talabalarining bilim darajasini baholash va ularning bo'sh vaqtida mustaqil ta'lim olishi uchun sharoit yaratishdir.

O'qituvchi uchun mo'ljallangan bo'limlar:

1. Guruhlar bo'limi: Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha alohida akademik guruhlarini shakllantirish va boshqarish imkoniyatini beradi.

2. Testlar va natijalar bo'limi: Sun'iy intellekt yordamida belgilangan mavzu asosida avtomatik tarzda test savollarini generatsiya qiladi. O'qituvchi mavzu nomini yoki tayyor o'quv materialini tizimga yuklashi mumkin; SI (AI) ushbu materialni tahlil qilib, undan chetga chiqmagan holda turli murakkablikdagi testlarni ishlab chiqadi. Shuningdek, talabalarining natijalarini shaffof baholash imkoni mavjud.

3. Materiallar tahlili bo'limi: Yuklangan o'quv materiallarini chuqur tahlil qilib, undagi maqsad, vazifa va asosiy xulosalarni alohida ajratib beradi. Bu o'qituvchiga dars mashg'ulotini mazmunan boyitishda yengillik yaratadi.

4. Dars o'tish metodikasi bo'limi: Tizim o'qituvchi yuklagan ma'lumotlar asosida eng mos pedagogik metodlar va metodik tavsiyalarni taklif etadi. Tayyor tavsiyalarni alohida yuklab olish va saqlash imkoniyati mavjud.

5. Talaba uchun mo'ljallangan imkoniyatlar:

Talabalar o'qituvchi tomonidan berilgan testlarni yechish, o'z natijalarini tezkorlik bilan ko'rish va mavzu yuzasidan sun'iy intellekt tavsiya etgan qo'shimcha resurslar bilan tanishish imkoniga ega bo'ladilar. Bu tizim talabaning bo'sh vaqtini bevosita ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanib, ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangi darajaga ko'taradi. Platforma o'qituvchilarga mavzuga mos eng samarali pedagogik metodlarni taklif etish orqali ularning metodik tayyorgarlik vaqtini sezilarli darajada tejash imkonini beradi. Talabalar uchun esa yangi mavzular bo'yicha test savollarining avtomatik generatsiya qilinishi mustaqil ta'lim jarayonini individuallashtirish va raqamlashtirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv ta'lim jarayonini har ikki tomon uchun ham yengillashtirib, vaqtdan unumli foydalanish va ta'lim sifatini oshirish imkonini beradi.

Ushbu dasturiy ishlanmaning asosiy afzalligi uning sun'iy intellekt bilan integratsiyalashganligidadir. Tizim o'quv materiallarini chuqur tahlil qilish orqali asosiy g'oyalar, mazmun va didaktik maqsadlarni aniq ajratib oladi. Keyinchalik, belgilangan mezonlarga tayangan holda eng samarali metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi, bu esa o'qituvchining innovatsion faoliyatini sezilarli darajada osonlashtiradi.

Talabalar uchun tizimdagi testlar generatori moduli alohida ahamiyatga ega bo'lib, u mavzu bo'yicha to'liq va xolis baholash tizimini yaratadi. Bu jarayonda bilimlarni baholashning avtomatik va tezkor amalga oshirilishi shaffoflikni ta'minlaydi hamda inson omili bilan bog'liq bo'lgan subyektiv xatoliklarning oldini oladi. Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, mazkur raqamli yechim talabalarining bo'sh vaqtini ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirish va ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ахмедов Ш. Х. Рақамли технологияларни таълимда қўллашнинг педагогик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон педагогика университети нашриёти, 2020. – 150 б.
2. Мирзаев Б. Т., Каримова Л. Р. Олий таълимда талабаларнинг илмий-тадқиқотчилик фаолиятини ривожлантириш // Тадқиқот ишлари журнали. – 2019. – 4-жилд, № 3. – Б. 45–52.
3. Johnson D. W., Johnson R. T., Smith K. A. Cooperative learning: Improving university instruction by basing practice on validated theory // Journal on Excellence in College Teaching. – 2014. – Vol. 25, No. 3-4. – P. 85–118.
4. OECD. Trends Shaping Education 2019. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 120 p.
5. Pashkina E. V., Smirnova M. A. Digital technologies in higher education: Opportunities and challenges // Journal of Educational Technology & Society. – 2018. – Vol. 21, No. 2. – P. 13–25.
6. UNESCO. Digital Transformation in Education. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 85 p.
7. Кузнецова Н. В. Методические подходы к организации свободного времени студентов в условиях цифровизации образования // Вестник педагогики. – 2020. – Т. 10, № 1. – С. 77–83.

8. Sadik A. Enhancing Research Skills through Digital Tools in Higher Education // International Journal of Educational Research. – 2018. – Vol. 92. – P. 44–55.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).